

## Xotin-qizlarning ilmiy jarayonga safarbarligi

Ilimga intilish, ilm olish va ilmiy izlanish masalasi jins ham, millat ham tanlamaydi. Jamiyatning taraqqiyoti ilm-fanga e'tibor bilan ekan, unga bo'lgan munosabat ham yuqori darajada bo'lisi tayin. Mamlakatimizda Prezidentimiz rahnamoligida bu ishga jiddiy qaralayotgani sir emas. "Iste'dodli yoshlarni izlab topish va ularni maqsadli tarbiyalash borasidagi ishlarni kuchaytirish kerak. Ilmni, tarbiyani to'g'ri qilsak, hamma sohalarni malakali mutaxassislar o'zлari rivojlantiradi", - deydi davlatimiz rahbari. Shunday ekan, institutimizda faoliyat yuritayotgan ayol professor- o'qituvchilarning ham, ilmiy izlanishga mayli ustun bo'lgan talaba qizlarning ham bu sohada o'z ulushi bo'lisi foydadan xoli emas. "Xalq so'zi" gazetasining 2020 yil 29 -oktyabr sonida institutimiz rektori, professor Umurzoqov O'ktam Pardaevichning "Ta'lismiz islohotlari O'zbekistonda yangi uyg'onish davri poydevorini yaratadi" nomli maqolasida ham xuddi shu masalalarga e'tibor qilingani bejiz emas. Maqolada institutda so'nggi 4 yilda erishilgan yutuqlar va istiqbolli vazifalar to'g'risida batafsil ma'lumotlar berilgan. Bu yutuqlarga erishishda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti jamoasi va shular qatori professor-o'qituvchi ayollarimizning ham hissasi katta ekanligi e'tirofga loyiqidir. "Institutimiz keyingi to'rt yilda ochiqlik sharoitida, jahondagi bir necha mashhur universitetlarning ilmiy, ta'limi va tadqiqot faoliyati, shuningdek xalqaro ta'lim dasturi tizimi bilan hamkorlikda ish olib bordi. Bu esa bizni ta'lim jarayonining kengaytirish imkoniyatini anglashga undaydi"-deb fikr bildiriladi maqolada. Shundan kelib chiqqan holda, institutimiz ayollari va talaba qizlari bugungi kunda barcha sohalarda ta'lim, tarbiya, ma'naviy va ma'rifiy sohalardagina emas, balki ilmiy sohalarda ham faol bo'lishni o'z oldilariga reja qildilar desak, adashmaymiz. 2020- yil 6-noyabr kuni Xotin-qizlar Kengashi va institut "Olimalayolar" klubi tashabbusi bilan barcha institut professor-o'qituvchilar, talaba - qizlar, bo'lim xodimi ayollari, yoshlar bilan ishslash bo'yicha dekan o'rinnbosarlari, institutimizning Buxoro va Qarshi filiallari xotin-qizlari, shu bilan birga institut qoshidagi Interneshnl-Xaus-Toshkent akademik litsey xotin-qizlari ishtirokida O'zbekiston Xotin-qizlar "Olimalay" Uyushmasining raisi, tarix.f.d., professor Murtazaeva Rahbar Xamidovna, institut ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor t.f.d., professor Sultonov Toxir Zokirovich, Yoshlar bilan ishslash bo'yicha prorektor p.f.n., dotsent Choriev Ruzimurat Kungratovich, "Olimalayolar" klubi rahbari iq.f.n., dotsent Sangirova Umida Ravshanovnalarni taklif qilgan holda "VEBINAR - SUHBAT" o'tkazildi. "VEBINAR - SUHBAT" institut xotin-qizlar masalalari bo'yicha Kengashi raisi p.f.d., professor Z.Ismailova va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha bo'lim boshlig'i Z.Xaydarov tomonidan olib borildi. Kirish so'zi t.f.d., professor T.Sultonovga berildi. Bunda ular tomonidan xotin-qizlar masalasini davlat siyosati darajasida ko'tarilib kelinayotganligi, institut professor-o'qituvchi ayollari va barcha talaba qizlar uchun yaratilayotgan sharoitlar, ularni barcha jabhalarda faolligi va shu bilan birga ilmiy tadqiqot ishlarida ham o'zlarini ko'rsatib kelayotganlari haqida fikr yuritishdi. T. Sultonov tomonidan barcha ilmiy ishlar bilan shug'ullanayotgan xotin-qizlarimizga imkoniyatlar eshigining ochiqligi va ular bilan birga hamkorlikda ishslash va kerakli maslahatlar berish kabi takliflar aytib o'tildi. Shu bilan birga bir qancha taklif va maslahatlar ham berib ketildi.



O'zbekiston Xotin-qizlar "Olimalay" Uyushmasining raisi, tarix.f.d., professor Murtazaeva Raxbar Xamidovna o'zlarining "O'zbekiston Xotin-qizlar "Olimalay" Uyushmasining dolzarb masalalari" mavzusida ma'ruza qildi. Ma'ruza juda qiziqarli va yangi ma'lumotlar bilan yo'g'rilgan edi. Shu bilan birga Respublika "Olimalay" uyushmasining faoliyati bilan ham tanishtirib ketildi. Barcha vebinari ishtirokchilari tomonidan savol-javoblar olib borildi, kerakli takliflar, ma'lumotlar olindi. Institutda tashkil etilgan "Olimalayolar" klubi rahbari iq.f.n., dotsent S.Sangirova tomonidan "Institutda professor-o'qituvchi ayollar va talaba qizlar bilan olib borilayotgan ishlar mazmuni" mavzusida teran dalillarga asoslangan ma'lumotlarga boy ma'ruza eshitildi. Bunda institutimiz xotin-qizlari tomonidan barcha sohalar bilan birga ilmiy tadqiqotlar faoliyati bo'yicha aniq ma'lumotlar berildi. Ayollarimizning yutuqlari va kelgusidagi rejalar bo'yicha ham aytib ketildi. Yakunlovchi so'z institutimiz yoshlar bilan ishslash bo'yicha prorektor R.Chorievga berildi. Ular tomonidan ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ayollarning faoliyati, talaba qizlarimizning yutuqlari, shu bilan

birga ilmiy tadqiqotil lar sohasidagi yutuqlari bo'yicha fikr yuritildi. So'ngra savol-javoblar va fikrlar bildirildi. Institutimiz xotin-qizlarimiz nomidan professor M.Shaumarova so'zga chiqib barcha ishtirokchilarga minnatdorchilik bildirdilar. Aynan ayollarimiz, qizlarimizning ilm sohasidagi bilimlari oilasini yuqori darajalarga olib chiqishi, farzandlari tarbiyasida muhim rol o'ynashi xususida mulohaza yuritdilar.



Vebinar yakunida Rahbar Xamidovna hammaga o'z minnatdorchiliklarini bildirgan holda institut faoliyati va ayollarning ilmiy izlanishlariga rivoj tiladilar. Vebinar – suhbat natijasida barcha ishtirokchilar o'zlariga tegishli fikrlarni, takliflarni oldilar. Ish faoliyatlarida bugungi berilgan ma'lumotlardan dasturulamal sifatida foydalanishlariga ishonib qolamiz.

TIQXMMI matbuot xizmati